

Gulrux Babanazarova

*Qarshi davlat universiteti
"Musiqiy ta'lim" kafedrası,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori
E-mail: gulruhbabanazarova@gmail.com*

QASHQADARYO DOSTONCHILIK USLUBI VA AN'ANALARI

***Annotatsiya.** O'zbek mumtoz musiqa merosi, bastakorlik ijodiyoti negizida shakllangan doston maktablari namunalarini o'quvchi-yoshlar orasida keng targ'ib etishda Sherobod va Dehqonobod dostonchilik maktablari ustoz-shogird an'anasi asos bo'lib xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** doston, baxshi, shaman, tabib, maktab, uslub, an'ana, shajara, uslub, do'mbira.*

THE STYLE AND TRADITIONS OF QASHQADARYA EPIC PERFORMANCE

***Abstract.** The epic schools formed within the framework of Uzbek classical musical heritage and traditional compositional creativity are widely promoted among students and young people. In this process, the teacher-student tradition of the Sherabad and Dehqonabad epic schools of the Qashqadarya region serves as a fundamental basis for preserving and transmitting the art of epic performance.*

***Keywords:** epic, bakhshi, shaman, doctor, school, style, tradition, family tree, style, dombira (a traditional two-stringed plucked instrument).*

Qashqadaryo dostonchilik uslubi – o'zbek xalq og'zaki ijodidagi yetuk va o'ziga xos maktablardan biri bo'lib, asosan, Qashqadaryo vohasi (Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qarshi atroflari)da shakllangan.

Qashqadaryo dostonchilik musiqiy uslubining asosiy xususiyatlari:

- Qahramonlik ruhi kuchli: dostonlarda mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, adolat g'oyalari yetakchi.

- Epik ohang: bayon salobatli, vazmin, dramatik kuchi baland.
- Jonli improvizatsiya: dostonchi voqeani vaziyatga qarab boyitib, o'zgartirib ayta oladi.

She'riy va nasriy aralash: Matn ko'pincha she'r (qo'shiq) va nasr almashinuvida ijro etiladi.

Ijro uslubi:

- Cholg'u: Asosan do'mbira bilan bo'g'iq ovozda ijro qilinadi.
- Ovoz: Past-baland ohanglar almashinuvi, kuchli emotsional ta'sir.

Ijro muhiti Qashqadaryo dostonchilik uslubida baxshilar to'ylar, sayillar, yig'inlar; tinglovchi bilan bevosita muloqot qilgan holda auditoriyadan qaysi dostonni ijro etishlarini so'rab ijro etadilar.

Repertuari keng tarqalgan dostonlar: "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumi, "Ravshan", "Avazxon" va boshqalar.

Qashqadaryo variantlari syujet tafsilotlari va qahramon xarakterlarining chuqur talqini bilan ajralib turadi.

Mashhur dostonchilar (baxshilar):

Tarixiy baxshilar orasida Qodir baxshi, Ergash Jumanbulbul o'g'li an'analari kuchli ta'sir ko'rsatgan; keyingi avlodlar Dehqonobod dostonchilik maktabida ustozlar an'anasini davom ettirib kelmoqdalar.

O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlari, Tojikiston va Turkmanistonning janubiy, qisman Shimoliy Afg'oniston (o'zbeklar ko'p yashaydigan) hudud sarhadlarida yetishib chiqqan yuzlab baxshilarni birlashtirgan dostonchilik maktabidir [1]. Sherobod dostonchilik maktabi tufayli Surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik an'alarini izchil rivojlanishi bugungi kunlarda ham davom etmoqda [2, 33-b].

Sherobod dostonchilik baxshilari shogird yetishtirishda, shogird tayyorlashda juda e'tiborli bo'lganlar. Chunki, og'zaki yaratilib kelingan dostonlar avloddan-avlodga faqat shu yo'l bilangina yetib borgan. Bu maktab an'alarini

Dehqonobod dostonchilik vakillari ham ustozlari Qodir baxshidan o'rganganlarini yosh avlodga yetkazib davom ettirib kelmoqdalar.

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar o'g'li bir qancha shogirdlar yetishtirganlar. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamadrayim baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan. Bu baxshilar repertuariga nazar tashlar ekanmiz, dostonchilikning nisbatan badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllariga duch kelamiz [6, 239-b].

Sherobod dostonchiligi maktabi vakillaridan yozib olingan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidko'l", "Ollonazar Olchinbek", "Sherali", "Kelinoy" kabi qator dostonlar O'zbekistonning boshqa joylarida yashab o'tgan baxshilar repertuarida uchratmaysiz.

Qashqadaryo dostonchilik maktabining boshqa maktablardan farqli tomonlari:

- Xorazm uslubiga nisbatan kamroq lirik, ko'proq epik;
- Farg'ona – Toshkent maktabiga qaraganda ohang salobatliroq va qahramonlik urg'usi kuchliroq.

Matn va badiiy til dostonlar xalqona tilda, ammo badiiy jihatdan yetuk tarzda ijro etiladi.

Tilga xos jihatlar:

- mahalliy Qashqadaryo shevasi unsurlari;
- arxaik so'zlar va iboralar;
- ramziy tasvirlar (ot, qilich, tog', yo'l obrazlari).

Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi poetik maktablar ham o'zaro yaqin aloqada bo'lganlar. Masalan, Shahrisabzlik Zokir shoir Qo'chqorov narpaylik Islom shoirning shogirdidir. U ustozning repertuaridagi asarlardan 35 terma, 7 doston ("Alpomish", "Kuntug'mish", "Zulfizar", "Hiromon", "Orzugul", "Bo'tako'zoyim", "Oymalika") o'rganganlar bundan tashqari do'mbira tuzilishini,

nusxasini ham Islom shoirdan o'rgansa-da, Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari do'mbirasini cherta olmaydi. Ayni vaqtda Samarqand baxshilari orasida Islom shoir Qashqadaryo bilan eng yaqin aloqada bo'lgan. Chunki ona avlodi Qashqadaryolik bo'lgan. Islom shoir bu vohaga tez-tez kelib turgan. Bu haqida o'zi shunday deydi [4]:

To'y qilsa chaqirgan Arg'onning cho'li,
Qo'ymay mehmon qilgan Qarshining eli.
Qarshining bor Qashqa degan daryosi,
Shu dostonni aytgan Islom bobosi [5].
She'riy tuzilma:

- 7–8 bo'g'inli va 11 bo'g'inli vaznlar;
- qofiya va radiflar ustuvor;
- takrorlar orqali drammatizm kuchaytiriladi.

Qashqadaryo baxshilar ham o'z kuylarini nag'ma deb ataydilar. Qozoq jirovlari ijodidagi “nomad”, qadimgi yunonlardagi “Nom” (kuylarni asosini tashkil qiluvchi ohang) tushunchalari ham xuddi shunday mazmunda keladi.

Doston kuy-nomalarini baxshilarning o'zlari quyidagicha ta'riflaydilar. Qashqadaryo maktabi namoyandasi Qahhor baxshi Rahimov dostonlarda ishlatiladigan cholg'u kuylar ba'zida baxshi kuy, do'mbira kuy, ko'pincha o'z nomlari bilan Cho'poni noma, Ot haydash nomasi, Noma boshi deb yuritilishini va agar bu kuylar doston so'zlariga solib o'qilsa nomalar deyilishini ta'kidlaydi [1].

Nag'ma ijro etishda Qashqadaryo baxshilari juda mahoratli sozanda hamdir. Masalan, Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiylarning risolalarida bu tizim notalarning o'rniga – barmoqlarning qo'yiladigan joyiga qarab pardalar bildirilgan.

Bosh barmoq (birinchi yoki ko'rsatkich barmoq) – **Sabboba**,
O'rta barmoq – **g'usta**,
Nomsiz barmoq – **binsir** ,
Jimjildoq – **xinsir** [3].

Qahhor baxshining o'zi bilan bo'lgan suhbatda shuni aytadiki, baxshi shogird chiqarishda juda injiq, ammo juda sabrli. Shogirdning birinchi darsida u dastlab baxshichilik, dostonlar, terma va laparlar haqida ma'lumotlar beradi. Keyingi darslaridan esa do'mbira cholg'usini qo'lda qanday tutish, pardani topish, dastlab ikkita barmoq bilan ijro etishni keyin to'rtta barmoq bilan ijro etishni o'rgatib undan so'ng shtrixlarni o'rgatib nag'malarga o'tiladi.

2 Quvnoqnoma



Baxshilar ijrosi Xudo tomonidan berilgan muqaddas ne'mat ovoz (yoki ovoz san'ati) deb qaralgan. Qadimdan eng kuchli va murakkab cholg'u inson ovozi deb qaralgan. Baxshi kuy va ohangi (talaffuz etilishi, kelib chiqishi, ijrosi, manbai)ga emas, balki borib yetadigan joyi (eshitilishi)ga qarab samoi deb yuritiladi. Samoining o'ziga esa – xushmavzun (muvofiq, mutanosib, go'zal) ovoz deb ta'rif beriladi. Inson ruhiyatiga beixtiyor ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan inson ovozi tovush foyda ham, ziyon ham keltirishi mumkin. Baxshilar bayramlar, to'ylar, tantanali voqealarda hamda xursandchiliklar, bazm-ziyofatlarda xalqning yonida turib o'z ijrolari bilan davralarni qizdirganlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Qashqadaryo baxshichilik san'ati nag'ma – kuy va noma – og'zaki bayon (she'riy matn)ning o'zaro mutanosibligi, dutor ijrochiligi orqali matnni dramatik kuchaytirish, xalq maqollari, hikmatlar bilan boyitilgani, ritmik va kuychan uslubda ifodalanishi ijrodagi hissiyot, dinamika va

boshqa musiqiy ifoda vositalaridan foydalanishi kabi ijro texnikasi, repertuar tanlashi, avlod-dan-avlodga o'tishi kabi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. "Baxshili el – yaxshili el", – deydi xalqimiz. Qashqadaryo to'y-u tomoshalari baxshilarsiz o'tmaydi. Musiqa san'atida ham xalq ijodida ham baxshilarning o'z o'rni va e'tirofi bor. Bu esa baxshichilik san'atini hali juda ko'p tasnif va tahlil qilishimiz imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Matyoqubov B. *Doston nomalari*. – Toshkent: Building Print, 2009. – 342 b.
2. "Doston ijrochiligi san'atini rivojlantirishda oliy ta'lim va baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktablar integratsiyasi" respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola Babanazarova G// "Qashqadaryo baxshichilik san'atining ijro xususiyatlari" nomli. – Toshkent, 2004.
3. Matyoqubov O. "Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish". – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – 342 b.
4. Ergashev A. *Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi*. – Toshkent: Fan, 2008. – 348 b.
5. Tilovov A. *O'zbek va tojik xalq eposi aloqalariga doir//Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o'rni*. – Toshkent, 1975.
6. Safarov O. *O'zbek xalq og'zaki ijodi*. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.